



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

KASBIY – METODIK KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI

Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna

Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta’lim
texnologiyasi kafedrasи o’qituvchisi

Annotation

Ushbu maqolada kasbiy-metodik kompetensiya tushunchasini maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari misolida ochib beradi.

Kalit so‘zlar: kompetentsiya, maktabgacha tarbiyachining kasbiy kompetentsiyasi va metodik kompetentsiyalari.

Аннотация:

В данной статье раскрывается понятие профессионально-методической компетентности на примере воспитателей дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность и методические компетенции воспитателя дошкольного учреждения.

Abstract:

This article reveals the concept of professional and methodological competence using the example of teachers of a preschool educational organization.

Keywords: competence, professional competence and methodological competencies of a preschool teacher.

O‘zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlanishi bu sohada ilg‘orlikni qo’llab-quvvatlamoqda. Maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishda avvalgi yillardagi bir qator kamchiliklar bartaraf etildi. Jumladan qishloq joylarida maktabgacha ta’lim muassasalari barpo etildi qishloq ahlosining maktagacha ta’lim sohasida qamrovi yanada oshirilishi bu katta yutuq. Maktabgacha ta’lim muassasalarida moddiy-texnik holati yanada yaxshilandi. Maktabgacha ta’lim muassasalarida malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qartildi va ularning



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

sonini bugungi kunda anchayin yuqori darajaga yetkazildi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida boshqaruv kadrlarining tanqisligi va ularning malakasining pasligini bartaraf etish masalalariga alohida e'tibor qaratilib bu sohada yangilanishlar amalga oshirildi. Albatta maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qurilishi bolalarning qamrab olinishi buning o'ziga yetarli emas. Bunda albatta malakali pedagog kadrlar ham talab etiladi. Bolaning tilini topa oladigan o'z ustida yaxshi ishlay oladigan kompetentga ega kadrlar bugungi kunda zarur va keraklidir.

Umuman olganda aytishimiz mumkinki davlatimiz tomonidan amalga oshiriliyotgan ushbu islohotlar hamda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadi

- maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy huquqiy bazani yanada riojlantirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning intelektual, axloqiy, estetik va jismoniy har tomonlama yetuk va mukammal etib shakllantirish;
- maktabgacha ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda innovatsion axorot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- zamon talablariga moslashtirish;
- maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, MTT faoliyatini moliyalashtirishning samaradorligi va shaffofligini oshirish;
- maktabgacha ta'lim muassasasi kadrlarining malakasini oshirish, qayta tayyorlash va tanlab olishda mutlaqo yangi yondashuvlarni tashkil etish kabi maqsadlarni amalga oshirish borasida bir qator qonun hujjatlari ham qabul qilingan. Ushbu islohotlardan ko'rishimiz mumkinki hozirda maktabgacha ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga kvotalar soni keskin oshirildi. Mazkur yo'nalishda o'qish muddati uch yilgacha qisqartirildi. Maktabgacha ta'lim direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tashkil etildi. Bu esa ushbu mavzuning bugungi kunda dolzarb va ahamiyatli ekanini ko'rsatib beradi. Bo'lajak tarbiyachilarining metodik tayyorgarliklarini oshirish bugungi kundagi ahamiyati yuqorida qonun hujjatlarida ham o'z aksini topgani bilan ko'rindi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni barcha zamonlarda o'zining dolzarbligi bilan ajiralib turadi. Ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat kelajagini rivojlantirishda asosiy ro'1 oynaydi. Ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish bu ta'lim tizimi sohasi hodimlarini ham zamon talablariga ega bo'lishi kompetentlarni shakllantirish talabini qo'yadi. Kompetentlik bu mahoratlari kasb egasi ekanligini ko'rsatib beradi. Zamonaviy ta'lim

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

o‘z-o‘zidan kompetensiyali yetuk mutaxassisli kadrlarni trayyorlash masalasini kun tartibiga qo‘yadi. Kasbiy kompetensiya bu bo‘ljak pedagoglarning o‘zini boshqara olish, o‘z ustida ishslash, malakalarini muntazam oshirib borish, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha doimiz izlanishda bo‘lish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Kompetensiyali pedagog dars jarayonida yangi-yangi metod va usullardan foydalana olish zaruriyatini qo‘yadi.

Kompetensiya (lot. Competo erishyapman, munosibman, loyiqlaman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba degan ma’nolarni anglatadi. Kompetentlik bu – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, ma’suliyatlilikni rahbar faoliyatiga singdirib borishga aytildi. Ya’ni o‘z sohasining sirlarini har tomonlama mukammal bilishi, va o‘z kasbining haqiqiy egasi. O‘z kasbining mukammal darajada egallagan bilimli shaxslarga nisbatan kasbiy komponentlik shaxs deyiladi bunday hollarda kompetentlik atamasi qo‘llaniladi.

Kasbiy kompetensiyani pedagogik muammo sifatida o‘rgangan tadqiqotchi olim I.V.Baydenko kasbiy kompotetntlik tushunchasini quyidagicha ta’riflaydi.

-o‘z mutaxassisligi bo‘yicha faoliyat yuritish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka va qobiliyatlarga, kasbiy muammolarni qisman hal etishda bir vaqtda avtonomlik va egiluvchanlik xususiyatlariga ega bo‘lish;

-kasbiy shaxslararo muhitda hamkasblar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

-faoliyat mezon (sifat o‘lchovi), qo‘llash sohasi, talab etiladigan bilimlarni o‘z ichiga olgan standartlarni loyihalash tuzilmasi;

-ish beruvchi talablariga ko‘ra kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi qobiliyatlardan samarali foydalanish;

-isonga hozirgi zamon mehnat muhitida ish faoliyatini muvaffaqiyatli bajarish imkonini beruvchi bilimlar, xususiyatlar va ko‘nikmalarning integrallashgan birlashuvi deya ta’riflagan.

-Kasbiy kompetentlik masalasini yuqorida ko‘rib chiqdik. Endi metodik kompetensiyaga to‘xalib o‘tsak. Metodik kompetensiya bu bo‘lajak pedagoglarning mukammal o‘sishi uchun xizmat qiladi. Metodik kompetensiyaga ega o‘qituvchi dars jarayonini rejalashtirish, baholash va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishni o‘z ichiga oladi. Kompetensiyag ega bo‘lgan o‘qituvchi bolalar bilan ishslash va ularning individual ehtiyojlarini qondira olishga ega bo‘ladi, dars rejalarini mukammal tarzda tuza oladi. har bir pedagog o‘zi’ing





Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th March, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

kasbiy metodik kompetensiyalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi ta'limning rivojlanishiga va samarali faoliyat olib borishiga inkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogikaning izohli lug‘ati.: T. 2009-210-213 b.
2. Raxmanov B.X. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun kasbiy madaniy aloqalarni shakllantirish tizimi.:T <https://study.vseokoree.com/obshchee-obrazovanie/doshkolnoe-obuchenie>
3. Sultansaidova, M. (2023). Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo ‘naltirib o ‘qitishda metodik tayyorgarligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 1(1).
4. Development of Professional Competencies of Students Based on Social Cooperation. A.A.Artikbayeva. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal 2 (2), 354-356
5. Abzalxanova, S. M. (2023). JAHON REYTINGI VA BO ‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBGA YO ‘NALTIRIB O ‘QITISHDA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASH-TIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. Science and innovation, 2(Special Issue 13), 758-761.
6. Xalilova Dilnoza Furqatovna. “Maktabgacha ta’lim tashkiloti bo‘lajak tarbiyachilarining ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish ”. Ta’lim sifati – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili, Qo‘qon 21 iyun 2023 yil. 677-679.
7. Sultansaidova, M. (2023). DEVELOPMENT STAGES OF PRESCHOOL EDUCATION PEDAGOGY. Confrencea, 4(04), 386-393.
8. ДХ Садикова, МС Калауова РОБОТЫ-ИГРУШКИ И МАТЕМАТИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ЗАНЯТИЯХ Analysis of world scientific views International Scientific, 2023
9. Гавхар Акбаровна Камалова. Социально-педагогическая сущность развития профессиональной компетентности учащихся на основе интегративного подхода. Intellectual Education Technological Solutions And Innovative Digital tools. 2023. 213-221
10. Abzalxanova, S. M. (2023). BO ‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY MOSLASHTIRISH OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 46-51.
11. Abdullayevna, G. G., & Kamaldinovna, B. M. (2022). WAYS OF FORMATION OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS.